

## ARAB MUMTOZ ADABIYOTIDA MUALLAQOT YOZGAN SHOIRLARNING O'RNI

*Maxmudjonova Shodiya Adxam qizi*  
*O'zDJTU Sharq filologiyasi 2-kurs talabasi*  
*tel: +998337112404*  
*mahmudjonovashodiya12@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: Umurzakova A.U.*  
*O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va*  
*amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab mumtoz adabiyoti davrining eng mashhur hamda ko'zga ko'ringan shoirlarining qisqacha hayoti va ijod yo'li hamda ularning "Muallaqot"lari va "Muallaqot"larning arab adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zar:** johiliyat davri, "Muallaqot", Imrul Qoys, Tarafa Ibn Al-Abd, Antara bin Shaddod Abbosiy, Horis bin Halza, Amr bin Kulsum, Zuhayr bin Abi Sulma, Labid bin Robiya Amiriy.

**Abstract:** In this article written about life and literal way of most famous and well-known writers of ancient arabic literature and about their "Muallaqot" 's and "Muallaqot"'s role in literature of arab.

**Key words:** Centura of Johiliyat, "Muallakot", Imrul Qoys, Tarafa Ibn Al-Abd, Antara bin Shaddod Abbosiy, Khoris bil Halza, Amr bin Kulsum, Zuhayr bin Abi Sulma, Labid bin Robiya Amiriy.

Johiliyat davri adabiyoti - bu Islom dini kirib kelishidan va paydo bo'lishidan oldingi davr adabiyotidir. Johiliyat davri adabiyoti mumtoz arab adabiyoti tarixida muhim o'ringa ega sahifa hisoblanadi. Biroq u davrda yaratilgan asarlarning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan, aksariyat qismi yo'qolib ketgan. Chunki u davrda odamlar ko'proq o'z xotiralari ustida ishlashgan. Ular faqat yod olishar va og'izdan og'izga, avlodlardan avlodlarga roviylar orqali yetib borar edi. Albatta, tildan tilga o'tishda she'rlarda ko'plab o'zgarishlar bo'lgan, lekin johiliyat davridagi arab she'riyatining an'analari saqlanib qolgan. Qadimgi arablarning so'z san'ati ya'ni adabiyoti tarixi qadim-qadimlarga borib taqaladi. Manbalarda keltirilishida, qadimgi arab adabiyotida, xususan, johiliyat davri adabiyotida yozuvchi va shoirlar o'z asarlarini maqollar, matallar, hikmatli so'zlar, afsona va rivoyatlar bilan bezatishgan. Shoirlar o'z she'rlarida o'z qabilalarini tarannum etish bilan bir qatorda, unga o'z

hurmatlarini ko'rsatganlar va ulug'laganlar. Qabila dushmanlariga esa kesatq va o'tkir tig'li so'zlari bilan kurashishgan. Johiliyat davri shoirlarining aksariyat qismi "Muallaqot"lari bilan mashhur bo'lgan. "Muallaqot" so'zining lug'aviy ma'nosi "osib qo'yilgan", "ilib qo'yilgan" demakdir. Chunki Islom kirib kelishidan oldin ushbu mashhur shoirlarning "Muallaqot"lari Ka'ba ustiga ilib qo'yilar edi. Muallaqotlar oltin suvi bilan yozilar edi. Johiliyat davrida, asosan, 10 ta shoir muallaqotlari mashhur bo'lgan.

Ular quyidagilardir: Imrul Qays, Tarafa Ibn Abd Ibn Sufyan bin Sa'd, Zuhayr Ibn Abu Sulmo, Horis bin Halza, Amr bin Kulsum, Nabig'o Zubyaniiy, Antara bin Shaddod, Labid bin Robia Amiriy, Ubay bin Abroslardir. Islomgacha bo'lgan davrda yozilgan qasidalar ketma-ket bir-biriga bog'lanib ketadigan mavzulardan tashkil topgan va ular XX asrgacha saqlanib qolgan.

Imrul Qays taxallusi bilan tanilgan johiliyat davridagi mashhur shoir johiliyat davridagi arab adabiyoti va siyosatida muhim o'rin tutgan mashhur shaxslardan biri hisoblanadi. U VI asrda Yaman davlatining Kanda qabilasida tavallud topgan. Uning asl ismi Zuhayr Ibn Harb bo'lgan. Imrul Qays esa uning taxallusi hisoblanadi. U yoshligidan zehni, bilimga chanqoqligi, she'riyat va adabiyotga qiziqishi balandligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. U o'zining "Muallaqot"lari bilan butun arab dunyosida mashhur. U faqatgina shoir emas, balki mashhur siyosatchi ham bo'lgan. Uning adabiy asarlari asosan muhabbat, shijoat, odamlarning ijtimoiy hayoti, tabiatning go'zal tasviri hamda o'zining hayotiy tajribalari haqida yozgan. Shu bilan birga u o'z asarlari u arab ekanligidan faxrlanishi haqida ham gapirib o'tadi. U juda ham ko'p asarlar yozgan, lekin ularning barchasi bizgacha yetib kelmagan, yo'qolib ketgan. Uning quyida keltirilgan muallaqoti arab adabiyotida juda mashhurdir:

فَمَا نَبِّكَ مِنْ ذِكْرِي حَبِيبٍ وَمَنْزِلٍ  
بِسْفَطِ اللَّوَى بَيْنَ الدَّخُولِ فَحَوْمَلٍ  
فَتَوْضِحَ فَاَلْمُقْرَاةَ لَمْ يَعْفُ رَسْمَهَا  
لِمَا نَسَجْتَهَا مِنْ جُنُوبٍ وَشَمَالٍ  
تَرَى بَعَرَ الْأَرَامِ فِي عَرَصَاتِهَا  
وَقَيْعَانِهَا كَأَنَّهُ حَبُّ فُلْفُلٍ

Yana bir johiliyat davri mashhur shoirlaridan biri bu Tarafa Ibn Al-Abd Ibn Sufyan bin Sa'd hisoblanadi. U, asosan, Tarafa nomi bilan tanilgan. Tarafa milodiy 539 – yil Bahrayn davlatida tavallud topgan. Yoshligidan ota mehrini ko'rmadan o'sgan, chunki otasi Tarafa hali aqlini tanimagan paytda vafot etgan edi. Tarafa Ibn Al-Abd yoshligidan ilmga, adabiyotga oshno bo'lgan, doimo o'z ustida ishlagan, ijodan to'xtamagan. Uning asarlari ichida quyida ko'rsatilgan "Muallaqot" eng tanilgan muallaqotdir :

معلقة طرفة بن العبد

لِحَوْلَةِ أَطْلَالٍ بِبُرْقَةِ نَهْمِدِ  
تَلُوْحُ كَبَائِي الْوَشْمِ فِي ظَاهِرِ الْيَدِ  
وَقُوفًا بِهَا صَحْبِي عَلَيَّ مَطِيَّهُمْ  
يَقُولُونَ لَا تَهْلِكُ أَسَى وَتَجَلِّدِ  
كَأَنَّ حُدُوجَ الْمَالِكِيَّةِ غُدُوَّةً  
خَلَايَا سَفِينٍ بِالتَّوَاصِفِ مِنْ دَدِ

Zuhayr bin Abi Sulma Imrul Qays va Tarafa ibn Al-Abddan keyingi 3-oʻrinda turuvchi johiliyat davri adabiyotining yirik namoyandasi edi. Uni yaqinlari fazilat ba shijoat, insoniylik va hikmat sohibi deb bilishar edi. U Madina-yu Munavvara shahrida tavallud topgani haqida maʼlumotlar bor. Oilasi adabiyotga oshno insonlardan iborat edi. Otasi hamda togʻasi, Sulma hamda Xonsa ismli opalari, hamda oʻzining ikki oʻgʻli ham adabiyot ixlosmandlari, shoirlar Zuhayr bin Abi Sulmaning qasidalar “Havliyat” deb nomlangan.

أَمِنْ أُمَّ أَوْفَى دِمْنَةً لَمْ تَكَلِّمْ  
بِحَوْمَانَةِ الدُّرَّاجِ فَالْمُنْتَلَمِ  
وَدَارٌ لَهَا بِالرَّقْمَتَيْنِ كَأَنَّهَا  
مَرَاجِيعُ وَشَمٍ فِي نَوَاشِرِ مِعْصَمِ  
بِهَا الْعَيْنُ وَالْأَرَامُ يَمْشِيْنَ خِلْفَةً

Labid bin Robia Al-Amiriy mashhur muallaqot sohiblaridan biri. Uning laqabi esa Al-Aql edi. Uning otasi urushda Labid hali bola paytida vafot etgan, shuning uchun uni amakisi Al-Baninning farzandlari oʻz qaromogʻiga olgan. Onasining ismi Tamiro bintu Zanba edi. U ham johiliyat, ham islom davrida yashagan shoir edi. Islom paydo boʻlganidan soʻng, Labid va uning qavmi islom dinini qabul qiladi, shundan soʻng esa u ijod bilan shugʻullanmay qoʻyganligi haqida maʼlumotlar bor.

عَفَتِ الدِّيَارِ مَحَلُّهَا فَمَقَامُهَا  
بِمَنْى تَأْبَدُ غَوْلُهَا فَرَجَامُهَا  
فَمَدَافِعُ الرِّيَّانِ عَرَى رَسْمُهَا  
خَلْفًا كَمَا ضَمِنَ الْوَحْيِ سِلَامُهَا  
دِمْنٌ تَجَرَّمَ بَعْدَ عَهْدِ أَنْبِيئِهَا  
جَجَجَّ خَلُونٌ خَلَالُهَا وَحَرَامُهَا

Amr bin Kulsum johiliyat davri adabiyotida oʻzining muallaqoti bilan 5-oʻrinda turadi. U Saudiya Arabistonining Najd shahrida tavallud topgan. Asarlaring aksariyatida arab davlatlari tarixi, arab xalqlari hayoti, ijtimoiy holati, odatlari hamda dinlar haqida maʼlumotlar bergan. Shoir 150 yil umr koʻrgan, milodiy 600-yilda vafot etgan.

معلقة عمرو بن كلثوم  
أَلَا هُبِّي بِصَحْبِكَ فَاصْبِحِينَا  
وَلَا تُنْفِي خُمُورَ الْأَنْدَرِينَا



مُسَعَّشَعَةً كَأَنَّ الحُصْنَ فِيهَا  
إِذَا مَا المَاءَ خَالَطَهَا سَخِينَا  
تَجُورُ بِذِي اللَّبَانَةِ عَن هَوَاهُ  
إِذَا مَا ذَاقَهَا حَتَّى يَلِينَا

Horis bin Halza Al-Shikiriyy Al-Valaiyy johiliyat davri adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutgan mashhur shoirlardan edi. U milodiy 430-yilda Iroq davlatida tug‘ilgan. U juda zukko, bilimli, uddaburon inson sifatida tanilgan. U nutq so‘zlaganda so‘zlarning eng go‘zal va ta’sirlilaridan foydalanalar, atrofidagi tinglovchilarni hayron qoldirar edi. Horis johiliyat davri shoiri Amr bin Kulsumning muallaqotiga javob ham yozgan. Quyida Horis bin Halzaning muallaqoti bilan tanishamiz:

أَدْنَتْنَا بَيْنِيهَا أَسْمَاءُ رَبِّ  
ثَاوِي يُمَلُّ مِنْهُ النَّوَاءُ  
أَدْنَتْنَا بَيْنِيهَا ثُمَّ وَلَّتْ لَيْتَ  
شِعْرِي مَتَى يَكُونُ اللِّقَاءُ  
بَعْدَ عَهْدٍ لَهَا بِرُقَّةٍ شَمَا  
ءَ فَأَدْنَى دِيَارَهَا الخَلْصَاءُ

Ziyod bin Muoviya bin Zibab bin Jobir ibn Yarbu Abu Umama Az-Zubyanii milodiy 536-yil Saudiya Arabistoni tavallud topgan. U yoshi ancha ulg‘ayganidan so‘ng shoir bo‘lib yetishgan. Shu bilan birga u Zubyan qabilasi saidi ham bo‘lgan. Johiliyat davrida shoirlar bozorlarda, ko‘chalarda o‘z ijodlaridan namunalar o‘qib yurishganda Az-Zubyanii ularning she’rlaridagi xato va kamchiliklarni topib, ularni to‘g‘rilashga yordam berar edi. She’rlarida madh san’atidan ko‘p foydalangan. Shoir milodiy 640-yil Saudiya Arabistonida vafot etgan. Quyida uning qalamiga mansub muallaqot bilan tanishamiz:

يَا دَارَ مِيَّةَ بِالْعَلِيَاءِ فَالسَّنْدِ  
أَقْوَتَ وَطَالَ عَلَيَّهَا سَالِفُ الأَبْدِ  
وَقَفْتُ فِيهَا أُصَيِّلَانَا أَسَائِلُهَا  
عَيَّتْ جَوَاباً وَمَا بِالرَّبْعِ مِنْ أَحَدٍ  
إِلَّا الأَوَارِيَّ لَأَيَّ مَا أُبَيِّنُهَا  
وَالنُّوِيَّ كَالْحَوْضِ بِالمَظْلُومَةِ الجَلْدِ

Antara bin Shaddad Ibn Amr bin Muoviya bin Qird Al- Absiy milodiy 525-yil Saudiya Arabistonning Najd shahrida tug‘ilgan. Uning onasining ismi Zabiyya (ya’ni mayizxonim) edi. Onasi xabash irqiga mansub ayol edi, shuning uchun Antara ham qora tanli edi. Antaraning go‘zal axloqi, hammaga xush keladigan odobi bor edi. U kuchga to‘la, shijoatli, jasur erkak bo‘lishiga qaramasdan, urushlarda qatnashganda hammaga rahmdillik qilar edi. Uning lirik asarlari, asosan, otchoparlik, chavandozlik va amakisining qizi bo‘lmish Ablaga muhabbati haqidagi hislar haqida yozilgan.

دَعْنِي أَجِدُّ إِلَى العَلِيَاءِ فِي الطَّلَبِ

وَأَبْلُغُ الْغَايَةَ الْفُصُوى مِّنَ الرُّتَبِ  
لَعَلَّ عَبْلَةً تُضْحِي وَهِيَ رَاضِيَةٌ  
عَلَى سَوَادِي وَتَمَحُو صَوْرَةَ الْغَضَبِ  
إِذَا رَأَتْ سَائِرَ السَّادَاتِ سَائِرَةً  
تَزُورُ شِعْرِي بِرُكْنِ الْبَيْتِ فِي رَجَبِ

Xulosa qilib aytganda, mumtoz arab adabiyotining eng yirik namoyondalari muallaqot yozgan shoirlar hisoblanadi. Muallaqotlar arab adabiyoti tarixida va hozirda ham yirik meros sifatida qarab kelinmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
2. Ziyovvudinova.M. Mumtoz arab adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2011.
3. شرح المعلقات العشر للشنقيطي تحقيق وشرح - د.أحمد أحمد شتيوي - الجزائر ٢٠١٣م